

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIK
VAZIRLIGI**

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

“Pedagogika va tabiiy fanlar” kafedreasi

Kurs ishi

“Agronomiya” fakulteti KT (Agr) yo'nalishi II-bosqich, 2-guruh

Mavzu: O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi mazmuniga qo`yiladigan talablar

Tekshirdi: N. Azimjonov

Bajardi: M. Ko'paysinova

Andijon -2013

Mavzu: O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi mazmuniga qo`yiladigan talablar

O`quv moduli birliklari.

1. Ta`limning asosiy shakli – dars.
2. O`quv ustaxonasidagi tahlim metodikasi.
3. Ta`limda ishlab chiqarish ilg`orlari tajribasidan foydalanish.
4. Ishlab chiqarish tahlimi metodlari haqida umumiy tushunchalar.
5. Og`zaki va ko`rgazmali metodlar.
6. Amaliy metodlar.
7. Tajriba – amaliy ishlar.
8. Ta`lim metodlarini tanlash.

Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari (talabaning vazifalari):

Talaba ushbu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

Ishlab chiqarish tahlimi metodi to`g`risida tushunchaga ega bo`ladilar;

Ishlab chiqarish tahlimi metodlarini sanay oladilar;

Ishlab chiqarish tahlimi metodlarini maqsad va vazifalarini tushuntiradilar;

Tajriba – amaliy ishlarni bajarishda foydalanadilar;

Ishlab chiqarish tahlimi shakllarini sxemasini chizishda foydalanadilar;

Ishlab chiqarish tahlimi metodlariga quyilgan talablarni baholaydilar.

Tayanch so`z va iboralar.

Ta`limning asosiy shakli, o`quv ustaxonasidagi tahlim metodikasi, ishlab chiqarishda ilg`orlar tajribasidan foydalanish, ishlab chiqarish tahlimi metodlari, og`zaki metodlar, ko`rgazmali metodlar, amaliy metodlar, tajriba– amaliy ishlar, tahlim metodlarini tanlash.

M.S. Har bir tahlim metodlaridan kutilgan yagona maqsad nimadan iborat?

M.T. Dars so`ziga klaster tuzing.

1. KXKlarida o`quv ishlarni to`g`ri tashkil qilish, o`quvchilarning o`quv dasturida ko`zga tutilgan o`quv materiallarini tizimli o`rganish va puxta o`zlashtirish hamda ongli ishchilarni tarbiyalashga sharoit yaratadi.

KXKlarida o`quvchilarning o`quv ishlab chiqarish faoliyati turli tashkiliy shakllari kechadi.

Ishlab chiqarish tahlimining tashkiliy shakli deganda o`quv- ishlab chiqarish faoliyati uchun o`quvchilar jamoasini tashkil etish yo`llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek o`quv mashg`ulotlarini qurilish strukturasi tushuniladi.

Ishlab–chiqarish tahlim jarayoni (2–rasm) tahlimning turli shakllari bilan tahminlanadi. Ta`limning asosiy formasi dars hisoblanadi. Bu KXKdagi o`quv ishini tashkil etishning nazariy va ishlab chiqarish tahlimidagi asosiy shaklidir.





2-rasm.

Ishlab chiqarish tahlimi darsi–o`quvchilarning barcha guruhlarini bir xil sharoitda, yagona didaktik vazifaning bajarilishini tahminlaydigan tashkiliy shaklidir. (masalan: o`quv ishlab– chiqarish ustaxonalari, o`quv xo`jaliklari, o`quv ishlab chiqarish sexlari va hokazo). O`quvchilar faoliyati va tahminoti jarayoni, shuningdek doimiy tayyorgarlikni metodlari va didaktik vositalarni to`g`ri tanlashni tahminlaydi.

Xususan dars frontal guruh shaklida o`quvchilar o`quv materialini bir vaqtda bir xil ishlarni bajargan holda o`rganadilar. Bu shakl o`qitish uchun juda qulay sharoit yaratadi va shuning uchun undan birinchi navbatda foydalanish zarur.

9.2 KXKdagi ishlab–chiqarish tahlimi dastlabki paytlarda kollej o`quv ustaxonalarida, xo`jaliklar tomonidan ajratilgan o`quv dalasida, o`quv ustaxonalarida o`quvchilar tomonidan bajariladigan ish turlariga qarab mashg`ulotlar (dars)ning quyidagi xillarini ko`rib o`tish mumkin: mashq darslari, o`quv ishlab–chiqarish buyumlarini mustaqil tayyorlash darslari, aralash darslar, ko`rsatmali va nazorat–tekshirish darslari.

Mashg'ulot darslaridan mashq qilish davrida foydalaniladi. Bu yerda yetakchi element, o'quvchilar tomonidan mashqlarni ishlab chiqarish harakatlari operatsiyalarida qayta bajarish hisoblanadi.

O'quv ishlab chiqarish buyumlarini mustaqil tayyorlash darslari ishlab chiqarish tahlimi asosiy sharti sifatida o'tiladi. Bunda o'quv ishlarini mustaqil bajarish yakka, brigadali va frontal (umumiy gruppaviy) bo'lishi mumkin. Bir xil ish quroli va bir asbob ko'plab bir xil ishni umumguruhli bajarilayotganda (bir traktorda navbat bilan mashq bajarilayotganda) usta guruhga faqat umumiy rahbarlik qilish bilan har bir o'quvchiga yordam beradi. Mustaqil ish agar o'quvchi brigadada o'zining mustaqil topshirig'ini bajarayotgan bo'lsa, brigadali bo'lishi ham mumkin.

Aralash dars barcha aytib o'tilgan dars xillariga xos bo'lgan elementlar qo'llaniladigan darsga aytiladi. Har bir darsning bosh vazifasi va maqsadi o'quvchilar tomonidan dastur materialini frontal hamda rejali ravishda o'zlashtirishdir.

Ko'rsatmali (instruktiv) darslar garchand yo'l–yo'riq har bir dars xilining zaruriy elementi sanalsada kam uchraydi. Ko'rsatmali darslardan ekspluatatsion xarakterdagi kasblar bo'yicha tahlil berishda foydalaniladi. Bunday hollarda darslarda apparat va mexanizmlar namoyish qilinadi, ularning tuzilishi, ishi, alohida qism va uzellarning o'zaro harakati tushuntiriladi. Darsning bu xiliga ustaning mashina haydashga o'rgatishdagi ko'rsatmasini ham kiritish mumkin (traktorlar, avtomobillar, avtokranlar va boshqalar).

Nazorat tekshirish darslari odatda o'quv davrining oxirida o'quvchilarning mustaqil ishga bo'lgan qobiliyatini, ularning ishlab chiqarishga ulgurishini baholash, shuningdek o'quv ishlab chiqarishda faqat o'quvchilar emas, balki usta faoliyatidagi kamchilik va ijobiy tomonlarni ham hisobga olish maqsadida o'tkaziladi.

O'quvchilarga o'quv ustaxonalarida tahlil berishning xususiyati shundaki, u o'quvchilar tomonidan bilimlar, malaka va ko'nikmalarni izchil hamda ongli o'zlashtirish prinsiplariga rioya qilingan holda o'tkaziladi. Barcha mehnat

harakatlari, usullari operasiyalari o'sib boradigan ishlarning murakkabligi va aniqligi tartibida o'rganiladi. O'quv ustaxonalarida o'quvchilar mehnat operasiyalariga kiruvchi alohida usul va harakatni egallaydilar.

Operasion mavzular bo'yicha obhekni noto'g'ri tanlash natijasida mashqlar bajariladi. Pedagogik jihatdan bu o'quvchilarining ishlarini ongli bajarishga xalaqit berib, ularning kasbga bo'lgan qiziqishlarini susaytiradi, ishlab chiqarish jihatidan esa materiallar, elektr quvvatini, yonilg'ini ortiqcha isrof bo'lishiga olib keladi.

Kirish yo'l yo'rig'i operasiyalarini o'rganishning asosiy tarkibiy qismlari ustaning asosiy mehnat usullarini metodik jihatidan to'g'ri va malakali namoyish qilishdir. Ularni o'quvchi o'zlashtirishi lozim.

Kirish yo'l-yo'rig'i ko'rsatmali xaritadan foydalanib mashqlarning bajarilishi tartibini (analiz) tahlil qilish muhimdir. O'quvchilar ko'rsatilgan usullarni takrorlaydilar va xarita mazmuni bo'yicha savollarga javob beradilar.

9.3. Ishlab chiqarishga zamonaviy ilg'or texnika va yangi texnologiyaning joriy etilishi munosabati bilan ishlarga texnik savodxon bo'lish hamda juda sermahsul mehnat qilish kabi talablar quyilmokda. O'quvchilarni ishning ilg'or metodlariga hatto juda oddiy operasiyalar bilan tanishish jarayonida ham o'rgatish zarur. Chunki bu davrda o'quvchilar kelgusida foydalaniladigan malaka va ko'nikmalarni hosil qiladilar. Ilg'orlar tomonidan qo'llaniladigan ishning eng rasional metod va usullari yosh ishchilarda bu usullarni takomillashtirishga intilish uyg'otadi.

Ishlab chiqarish tahlilining ilg'or ustalari eng yaxshi ish metodlarini tanlashda quyidagi sxemalardan foydalanadilar:

Ish o'rnini tashkil qilish:

Ish urnini ish bajarilishiga qadar kerakli narsalar bilan tahminlash:

Ish o'rnida asboblari, moslamalar, texnikalar, texnik xujjatlarning juda rasional joylashuvi:

Ish o'rnida texnik xizmat ko'rsatish.

Texnologik jarayonlarni tashkil qilish:

Texnologik jarayonlarning eng qulay rejimlarini tadbiq qilish:

Mexanizasiyani qo'llash va undan foydalanish:

Mehnat rejimini yaratish:

Maqsadga muvofiq mehnat harakatlaridan qo'llanish, ularning tekisdaligi:

Mehnat bilan dam olishning almashinib turishi.

O'quvchilar ilg'orlarning ish tajribasining amaliy jihatidan muvaffaqiyatli chiqqan tomonlarni egallashlari uchun bahzi metodik usullarni tavsiya etish mumkin:

Tanishish, kuzatish uchun zavod va texnika ko'rgazmasiga sayohatga borish: ishlab chiqarish ilg'orlarini ish sxemasini yozib olish va shaklini chizib olish.

Ishlab chiqarish novatorlari bilan ularning ish jarayonlarida, o'quv ustaxonalarida uchrashuv: KXKning sobiq o'quvchilari—ilg'orlar bilan uchrashuv:

O'quvchilarning ishlab—chiqarish ishlarida ishlab chiqarish ilg'orlari qo'llagan asboblardan foydalanish, shuningdek o'quvchilar kuchi bilan usta yordamida oddiy asbob va moslamalar yasash:

O'quvchilar tomonidan konferensiyalarda chiqish uchun maqolalar tayyorlash va ko'rgazmalar yasash:

O'quvchilarni ishlab—chiqarish ilg'orlarining ishi yoritilgan maxsus adabiyotlar, ishchining ishlab chiqarish faoliyatida asqotadigan yangi asboblarning tuzilishi va ishlash usullari bilan tanishtirish.

9.4. Ta'lim metodi deganda o'qituvchi (usta) va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati yo'llari tushuniladi. Bularning yordamida o'quvchilar bilim, malaka—ko'nikma, kasbiy mahoratlarni egallashga erishadilar, ularda ehtiyoj va qarashlar hamda xalq odatlari tarbiyalanadi, aqliy va jismoniy kuch va ijodiy qobiliyat rivojlanadi.

Metodlar, metodik usullar deb ataluvchi alohida elementlarga bo'linadi, masalan: o'quvchilarga ko'rsatma berishda ish harakatini ish jarayonida sekinlashtirib va elementar harakatlarga bo'lib ko'rsatish.

Ta'lim metodlari axborot manbalariga qarab klassifikatsiya qilinadi (sinflarga bo'linishi). Chunki ular asosida bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanadi. Shuning bilan birga o'qituvchi (usta) va o'quvchilarning bu manbalardan foydalanishdagi faoliyati va xarakteri yoki munosabatlariga bog'liqdir. (So'z, xissiy obraz va

amaliy faoliyat). Shuning uchun ham ishlab chiqarish tahlilining umumiy metodlarini shartli ravishda uch guruhga: ogʻzaki, koʻrgazmali va amaliy kabilarga boʻlish mumkin. (2 – rasm).



**ТЕЛЕВИДЕ-
НИЕ, ОВОЗ
ЁЗИБ ОЛИШ**

**МЕҲНАТ
ЖАРАЁНИГА
РАЎЗБАРЛИК
ҚИЛИШ**

Rasm-3.

KXK da nazariy va ishlab chiqarish tahlimini qo`shib olib borish o`quvchilarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki, ishchi jamoalari bilan doimiy aloqasi, o`ziga xos tahlim va tarbiya metodini taqozo etadi.

KXK da xilma-xil tahlim metodlari qo`llaniladi. Ulardan bahzilari umumiy bo`lib istalgan kasbdagi ishchilarning tayyorlashda, boshqalari esa faqat muayyan kasblarga o`qitishda foydalaniladi. Bunday metodlar xususiy metodlar deb ataladi.

9.5. Og`zaki metodlarga (jadvaldagi kiradi). Metallarni og`zaki bayon qilish, ishchi tahlimida hikoya qilish, tushuntirish, mahruza, suhbat, o`quv materialini og`zaki bayon qilishning asosiy metodlari hisoblanadi.

Hikoya usta tomonidan o`quv materialini tartibli, mantiqan izchil, nisbatan kengrok bayon qilishda foydalaniladi. U puxta o`ylangan reja asosida tuzilish materialini bayon qilishda noaniqlikka yo`l qo`ymaslik uchun barcha detallari bilan

tayyorlanishi lozim. Yo`l-yo`riq paytida odatda, hikoya, plakat, diagramma, ishlab chiqarish materiallaridan namunalar, moslama kabilarni namoyish qilish orkali olib boriladi.

Tushuntirish – bu muxokama o`quvchilar bilan savol javob qilish orkali o`quv materialini bayon qilishdir. Tushuntirish hikoyaga yaqin bo`lgan tahlil metodi hisoblanadi. Ishlab chiqarish tahlilida hikoya va tushuntirishdan alohida holda ham foydalaniladi. Masalalarni bayon qilishda, masalan; mashinalar mexanizmlar tuzilishi yoki texnologiya jarayonlarning borishini bayon qilishda ko`pincha hikoya va tushuntirish birga qo`shib olib boriladi.

Hikoya va tushuntirish usta nutqiga qo`yiladigan umum pedagogik talablariga javob bera olish kerak yahni gaplar to`g`ri, aniq ko`rilishi, talaffuz va ifodalilik bo`lishi lozim, (pauzalardan foydalanish, logik urg`u va intonasiyalar, ovozning turlicha balandligi, hamda nutq tezligi).

Bayon mantiqan to`g`ri va tugallangan bo`lishi lozim. Buning uchun materialni to`g`ri guruhlash, tartiblash kerakki, qarab chiqiladigan masalalar izchil joylashgan bo`lsin. Ana shunda ularning ichki bog`likligi saqlanadi. Bayon qilish tartibi avvalo yoritiladigan hodisa va harakatning izchilligi bilan belgilanadi. Mahlumdan nohmalumga, maqsaddan vositalarga o`tishda alohida ehtibor berish lozim. Biror mexanizmning tuzilishi va harakatini ko`rib chiqayotib, avval uning nimaga ishlatilishini tushuntirish, so`ng uni tuzilishini ko`rib chiqish kerak.

Suhbat, hikoya tushuntirishdan shu bilan farq qiladiki, unda usta faqat o`zi gapiribgina qolmay o`quvchilarni ham faol ishtirok etishga jalb qiladi.

Suhbatni yangi material o`tilayotganda shuning bilan birga o`quvchilar tasavvuriga ega bo`lgan ikkinchi rejali yengil materialni o`rganilayotganda o`tkazilgan mahqul.

Ko`rgazmali metodlar – bu ko`rsatmali qurollarni namoyish (ko`rsatish) qilish mehnat usullarini (3-rasm) o`quvchilarning mustaqil kuzatishlari o`quv – ishlab chiqarish sayohatlari.

Ko`rsatmali qurollarni namoyish qilish (ko`rsatish) metodi yordamida o`quvchilarda mehnat harakatlarining muayyan va aniq obrazi shakllanadi.

Ishlab chiqarish tahlimi darslarida ko`rsatmali qurollarning turli xil va shakllaridan foydalanish, ustaning tushuntirishlarini yaxshi idrok qilish hamda o`zlashtirishlarga, malakalarning mustahkam shakllanishiga yordam beradi. Plakatlar, sxemalar, modellar, maketlarni namoyish qilish bilan bir katorda harakatdagi ish quroli, asboblari, mexanizmlar, moslamalarning namunalari va hokazolarni ko`rsatish ahamiyatli.

9.6. Amaliy metodlar ga ish usullari mehnat operatsiyalari, kompleks ishlarni va vazifalarni bajarishdagi mustaqillikni rivojlantirishga tranajyorlarga oid mashqlar tajriba amaliy ishlarga texnologik jarayonlarni boshqarish mashqlari kiradi.

Mashqlar bu ko`nikma va malakalarni shakllantirish va mustahkam maqsadda muayyan harakatlarni kup martalab takrorlashdir.

Ishlab chiqarish mashqlarining muvaffakiyatli bo`lishi uchun ular asosan quyidagi talablarga javob berishi lozim:

Mashqlarni o`quvchilar tomonidan ongli va maqsadga muvofiq bajarilishi.

Mashqlarning metodikaga asoslangan tizimlilik, izchilligi, davomiyligi va chastotasi.

O`quvchilar ishdagi mustaqillik darajasining muntazam o`sib borishi.

Onglilik va maqsadga yunalganlik bu mashqlarni bajarishdagi birinchi va eng muhim talabdir.

НАМОЙИШ ҚИЛИШ КЎРСАТИШ

КЎРСАТМАЛИ =УРОЛЛАР

ҲАКИКИЙ
НАМУ-
НАЛАР

ТАСВИРИЙ
=ЫЛЛАН-
МАЛАР

ИШ УСУЛЛАРИ

АСБОБ-
ДАН
ФОЙДА-
ЛАНИШ

ИШ ХА-
РАКАТЛА-
РИНИ
ТАСНИ ФИ

ИШ ҲОЛАТИ

ИШ =УРОЛЛАРИ

ПЛАКАТЛАР

МАКЕТЛАР

МЕХА-
НИЗМЛАР

ЖАДВАЛ-
ЛАР

МОДЕЛЛАР

КУЧ

АСБОБЛАР,
МОСЛАМАЛАР

ЧИЗМАЛАР

ДИАФИЛЬМЛАР

ТЕМП ВА РИТМ

МАТЕРИ-
АЛЛАР.

СХЕМАЛАР

ДИОПОЗИ-
ТИВЛАР

КОРДИ- НАЦИЯ-
ЛАШГАН- ЛИК

АНИ=ЛИК

Rasm-4.

Mashqlar tizimliliği ikki talabga asoslanadi:

Har bir yangi malaka avval o`zlashtirilgan bilimlar va ko`nikmalar tizimiga kiradi. Mashq paytida malakalarni to`xtovsiz takomillashtirish o`rganiladigan harakatlarni bajarishdagi aniqlik va tezkorlikka bo`lgan talablarni izchillik bilan amalga oshirish. Mashqlarni o`tkazish sharoitini borgan sari qiyinlashtirib borish zarur.

9.7.Tajriba va amaliy ishlar tahlil metodi sifatida o`quvchilar tomonidan muayyan kasbga oid mehnat faoliyatiga zarur bo`lgan malaka hamda ko`nikmalarining egallanishining va unga kiradigan tadqiqot elementlarining tahlili va boshqalarning ko`zda tutadi. Ularning nazariy va ishlab chiqarish tahlili o`rtasidagi aloqasini o`rnatishda mustaqil kuzatish hamda tahlil qilish asosida texnologik jarayonlarning turli bog`lanishlari hamda konuniyatlarini o`zlashtirishda muhim rol o`ynaydi. Tajriba ishlari o`quvchilarni hodisalarni kuzatish va tahlil qilishda ulardan tegishli xulosalar chiqarishga, texnologik jarayonning turli bog`lanish qonuniyatlarini o`zlashtirishga o`rgatadi.

Tajriba ishi quyidagilarni o`z ichiga oladi: o`quvchilarga tajriba ishining mavzusi va maqsadi haqida ko`rsatma beruvchi kirish qismi ishni olib borish tartibi bilan tanishtiradi: guruhning ( brigada ) zvenolari bo`linishi asboblari moslamalardan foydalanish qoidalarini tushuntirish, ishni bajarish usulini ko`rsatish: ishdagi xavfsizlik qoidalari bilan tanishish.

Usta tajriba ishi uchun kerakli jihozlarning avvaldan tayyorlab qo`yadi.

9.8.Ta`lim metodlarini tanlash.

Ishlab chiqarish tahlili metodlari tizimi va har bir metod alohida fan texnika, ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishi bilan o`zgarib boradi.

Ishlab chiqarish metodlarini tanlash turli sharoitlarga bog'lik. U tahlim va tarbiya masalalari, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'quv materialining mazmuni, ularning yoshi va o'ziga xos xususiyatlari, moddiy–texnika bazasi singarilar bilan izohlanadi. Ishlab chiqarish tahlimida turli materialdan foydalanish zarur, lekin ularning maqsadga yo'nalganligining hisobga olish kerak. Hech qanday metod asosiy va universal bo'lishi mumkin emas.

Ishlab chiqarish metodlarining vazifasi o'quvchilarning aktivligi, aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan, ularga ishlab chiqarish ilg'orlarining vaziyatlarini tarkib topishdan iboratdir.

Metodlar o'quvchilarga muayyan kasb uchun (xarakterli) tavsifli bo'lgan barcha ishlarni mustaqil hamda yuqori unumda bajarishini malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi

6 – MAHRUZA

Kasb-hunar ta'limini rejalashtirish

O`QUV MODULI BIRLIKLARI.

- 6.1. Rejalashtirishning maqsad va mazmuni.
- 6.2. Kasbga doir o'quv ishlari ruyxati.
- 6.3. Guruhga ishlab chiqarish tahlimi berish rejasi.
- 6.4. Texnik iktisodiy ko'rsatgichlar.
- 6.5. O'quvchilarni o'rinlarini o'zgartirish grafiklari.
- 6.6. O'quv texnologik harita.
- 6.7. O'quv ustasini o'quv kuni uchun ish rejasi
- 6.8. Yigma mavzuviy rejalashtirish.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari (talabaning vazifalari):

Talaba ushbu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

O'quv rejalashtirish hujjatlari to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi;

O`quv rejalashtirish hujjatlarini sanay oladi;
O`quv rejalashtirish hujjatlarini vazifalarini tushuntiradi;
Amaliy ishlarni bajarishda foydalanadilar;
Fan rejalarini tuzishda foydalanadilar;
O`quv rejalashtirish hujjatlariga quyiladigan talablarni baholaydilar.

Tayanch so`z va iboralar.

Rejalashtirishning mazmuni, rejalashtirishning maqsadi, o`quv ishlarini ruyxati, ishlab chiqarish tahlimi berish rejasi, iqtisodiy ko`rsatgichlar, o`quvchilarni o`rinlarini o`zgartirish jadvali, o`quv texnologik xarita, o`quv kuni uchun ish reja, yig`ma – mavzuviy rejalashtirish.

M.V. Guruh uchun bir yillik vaqt fondini hisoblang?

M.T. O`quv texnologik xarita tuzish.

12.1. Ishlab chiqarish tahlimi jarayonini rejalashtirish muhim pedagogik va tashkiliy ahamiyatga ega bo`lib, KXXda o`quvchilarga tahlim hamda tarbiya berish sifatini ko`tarishning zarur shartidir.

Rejalashtirish:

O`quv jarayonini maqbul tashkil etish uchun zarur sharoit yaratish, o`quv guruhlarini o`quv rejalar va dasturlarini o`z vaqtida hamda to`liq bajarishlarini tahminlash, ishlab chiqarish tahlimi ustasiga har bir mashg`ulotga oldindan puxta tayyorgarlik ko`rish;

O`quv jihozlari, binolari, o`quv xo`jaliklarida esa yer uchastkalari hamda texnikadan juda to`liq va samarali foydalanish;

Fanlararo bog`lanishlar va nazariy tahlimning ishlab chiqarish bilan bog`lanishini o`rnatish;

Ta`lim sifatini, o`quvchilarning bilimlari ko`nikma va malakalari darajasini muntazam ravishda nazorat qilish.

Ishlab chiqarish tahlimi jarayonini rejalashtirish uchun quyidagilar:

A) Kasbga doir o`quv ishlari ruyxati.

B) Guruhning ishlab chiqarish rejasi.

- V) Ishlab chiqarish tahlimi jadvallari.
- G) O`quv – texnologik xarita.
- D) Ustaning o`quv kuni uchun ish rejasini tuziladi.

12.2. Kasbga doir o`quv ishlari ruyxati.

Ishlab chiqarish mehnati asosida o`quvchilarga tahlim berish operatsiya – kompleks tizimining xarakterli belgilaridan biridir.

Ruyxatlarda o`quvchilar ishlab chiqarish tahlimi dasturida nazarda tutilgan kasbiy bilimlar egallashlari, ko`nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun o`quv ustaxonasi yoki o`quv dalasida muayyan kasb yuzasidan qanday o`quv ishlab chiqarish ishlarini bajarishlari lozimligi ko`rsatib qo`yiladi. Dasturning biror mavzusini o`rganish vaqtida bajariladigan o`quv ishlab chiqarish ishlarining aniq obyektlarini KXXning o`zi mustaqil ravishda ko`rsatib qo`yadi.

O`quv ishlarini tanlash paytida tahlim amaliyoti asosida ishlab chiqilgan quyidagi talablarga asoslanishi lozim:

Ishlar o`qitish vazifalariga javob berishi kerak yahni o`quvchilar ularni bajarish vaqtida o`quv dasturining tegishli mavzularida nazarda tutilgan usullarni egallaydilar.

Oddiydan murakkabga, osondan qiyinga o`tishdek didaktik tamoyilga, mavzu va mavzuchalar doirasida (bir mavzudan boshqa mavzuga o`tish, o`quv topshiriqlarini asta sekin murakkablashtirib borish) ish tanlash tamoyiliga rioya qilish; bu o`quvchilarga o`z malakasini oshirish paytida ortib borayotgan qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi

Ishlab chiqarish tahlimi ustalari o`quv ishlari ruyxatlarini katta usta rahbarligida yarim o`quv yilligi uchun tuzadilar. Agar KXX da bitta kasbdan bir necha bir kursda guruhlar bo`lsa, o`quv ishlarini ruyxatini tuzish eng tajribali ustaga topshiriladi. Ruyxatlarni yarim yillik boshlanishidan oldin metod kengash muhokama qilishadi, uni direktor yoki o`quv ishlab chiqarish ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari tasdiqlaydi.

Ruyxatga kiritilgan hamma ishlar uchun tegishli texnik xujjatlar, chizmalar, texnik sharoitlar, ko'rsatmalar yoki texnologik kartalari, tahlilning har bir o'qitish davriga qo'llaniladigan texnik jarayonga mos bo'lgan vaqt (ishlab chiqarish) normalari albatta ishlab chiqilishi lozim.

12.3. Guruhga ishlab chiqarish tahlimi berish, rejada o'quvchilar guruhi uchun o'quv ishlab chiqarish topshiriklarining aniq mazmuni, ularni bajarilishidagi izchillik belgilab beriladi. Rejani guruh ishlab chiqarish tahlimi ustasi katta usta rahbarligida o'quv reja, ishlab chiqarish tahlimi dasturi va mazkur kasb uchun tuzilgan ishlar ruyxati asosida ishlab chiqadi. Reja bir oyga, bahzan esa undan ham uzoqroq muddatga mo'ljallab tuziladi. Kishloq xo'jaligi mexanizatorlari kasbini o'rgatishda (keng ixtisosligi traktorchi mashinist, chorvachilik, sug'orish ishlari mexanizatorlari va boshqalar) ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish rejasi tuziladi.

KXKlarda qishloq xo'jaligi texnikalaridan tajriba – amaliy mashg'ulotlarda traktor agregatlari, kombaynlar va boshqa mashinalarda amaliy mashg'ulot o'tkazish, shuningdek traktor, kombayn, avtomobilg' haydashni nazarda tutilgan hamda kasblar o'rgatish paytida ana shunday mashg'ulotlar o'tkazish rejalari va har bir o'quv guruhi uchun mashina haydashni yakka tartibda o'rgatish jadvallari ishlab chiqiladi.

O'quv guruhlarining o'quvchilari va ustalari ana shunday rejalarini tuzadilar. Ular mukammal o'quv rejalariga mos bo'lib, ularga mashinalarda amalga oshiriladigan ishlarning izchilligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va boshqa ishlar davriga to'g'ri kelishi nazarda tutiladi.

Mashina haydashni yakka tartibda o'rgatish jadvallari har bir o'quvchiga o'quv rejada belgilangan soatlarda mashina haydashni o'rgatish imkonini berishi lozim. Jadval ishlab chiqarish tahlimi ustasi tomonidan tuziladi va o'quvchilarga ma'lum qilinadi. Reja yozilgan qog'ozning orqa tomoniga guruhning bir oyda kilgan ishi haqidagi hisobot ma'lumotlarini joylashtirgan maqul.

12.4. O'quv maskanlarining ishlab chiqarish faoliyatlarini rejalashtirishga quyidagilar asos qilib olinmog'i kerak: ishlab chiqarish tahlimi dasturlari tahlil berish jarayonida turli xil mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanishi mumkin

bo'lgan o'quvchilar o'quv vaqti fondi bitta o'quvchini bir oy davomida o'qitishga ajratilgan vaqt fondini guruhdagi o'quvchilar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Masalan, o'quv rejasida sentyabrg' oyiga (o'quv yilining boshi) ishlab chiqarish tahlimi uchun har haftada 3 kun, yahni bir oyda har kuni 6 soatdan 12 kun ajratilgan. Binobarin bitta o'quvchi uchun bir yillik vaqt fondi $6 \times 12 \times 72$ soatni tashkil etadi, 30 kishilik guruh uchun esa vaqt fondi $72 \times 30 \times 2160$ soatga teng. Shuni nazarda tutish kerakki, (master) ustalarning yo'l – yurik berish vaqtlari, tayyorgarlik mashqlariga ketadigan vaqtlar (o'quvchilar tayyorgarlik mashqlarini bajarish jarayonida dastlabki malakalarni hosil qiladilar, lekin ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etmaydilar) o'quv vaqti fondiga kiradi.

Bir o'quvchining bevosita ishlab chiqarish faoliyati uchun sarf qilingan vaqt fondi kirish va yakunlovchi yo'l – yuriklar berish vaqtini ham mehnat harakatlari va usullarini o'rganish uchun tayyorgarlik mashqlariga sarflanadigan vaqtни chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Tayyorgarlik mashqlariga sarflanadigan vaqt mavzuning mazmuniga qarab aniqlanadi.

12.5. Mashg'ulotlarning o'quv vaqtini bekor o'tkazmasdan, uyushqoqlik bilan o'tkazilishi uchun, har bir o'quvchining dasturda ko'zda tutilgan hamma (operasiyalarni) mashqlarni bajarishda yakuniga yetadigan metodik jihatdan yaxshilab uylab olingan muayyan navbatni belgilash zarur.

Bu navbat chuqur uylab olinishi lozim, chunki o'quvchilarga bir mashqni o'rgatish ularni boshqa mashqlarni o'zlashtirishga yaqinlashtiradi.

O'quvchilarga dasturdagi alohida mavzularni yoki ishning har xil turlarini o'rgatish navbatini rejalashtirish vaqtida guruhni brigadalarga yoki zvenolarga bo'lib yuboriladi (mahlum bir vaqtgacha). Bunday paytlarda o'quvchilarning ish o'rinlarini o'zgartirish taqsimot jadvali tuziladi.

Taqsimot jadvallari mavzular mazmuniga va tahlim berishni tashkil etish sharoitiga qarab turli formalarda bo'lishi mumkin, biroq bunda quyidagi talablarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

Guruh ishi bilan to'liq tahminlangan holda ahzolarining soni bir xil bo'lgan zvenolar yoki guruhlarga bo'linadi;

Ish o`rinlarini o`zgartirish vaqtlarining miqdori brigadalar soniga teng bo`lishi lozim;

Grafik tuziladigan umumiy vaqt, bir marta ish o`rinlarini o`zgartirish uchun ketgan vaqtning brigadalar soniga kupaytmasiga teng.

12.6. Ishlab chiqarish tahlimi darsi samaradorligini oshirishning eng muhim usullaridan biri o`quvchilarga yozma (instruktaj) yo`l – yurik berish hisoblanadi. Yozma yo`l – yurik bu o`quvchilarga mashq yoki ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishlarida zarur bo`ladigan ma'lumot va ko`rsatmalarni o`z ichiga oluvchi ko`rsatmali – metodik xujjatlar yordamida yo`l- yurik berishdir.

Ko`rsatma va ko`rsatmali – texnologik xaritalar, shuningdek turli xildagi ko`rsatmali estaliklar yozma yo`l – yurik o`tkazishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Bu o`quv texnologik xaritalar bajarilayotgan topshiriqlarning mazmuni, xarakteri, unga qo`yiladigan talablar, materiallar, asbob – uskunalar, jihozlar, mashinalar va traktorlarda bajariladigan mashqlar mazmuni hamda ularning izchilligi, shuningdek mehnatni tashkil qilish usuli va yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan xato va kamchiliklar, ularni bartaraf qilish usullari haqidagi ma'lumotlarni (qisqa shaklda) o`z ichiga oladi.

Plakatlar, chizmalar va boshqa ko`rsatmali qurollar bilan bir qatorda ko`rsatmali o`quv xaritalar o`quvchilar bilan yozma yo`l – yo`rik o`tkazish imkonini beradi. O`quv ko`rsatmali xaritalar mavjud bo`lsa, ko`p narsalar o`quvchilarga tushuntirishlarsiz ham ayon bo`ladi. Shuning uchun usta ularning ayrim mashqlarni bajarishlariga, ishning eng yangi usullarini to`g`ri qo`llayotganliklariga, xavfsizlik texnikalari qoidalariga rioya qilishlariga ko`proq ehtibor bera oladi. ko`rsatmali xaritalar bundan tashqari o`quvchilarni kerakli asbob, moslama, jihoz, mashina va traktorlarni qo`llab ishini ma'lum izchillikda mustaqil bajarishga odatlantiradi.

№	Bajariladigan ish turi	Ishni bajarish tartibi	O`z - o`zini tekshirish	Eskiz

--	--	--	--	--

8-rasm. O`quv texnologik xaritani tuzilishi.

12.7. O`quvchilarga tahlil berishda o`quv ustasi mashg`ulotlar rejasini tuzadi. O`quvchilarni o`quv ustaxonalarida o`qitishda KXXda markaziy o`quv metodika xonasi tavsiya etgan usta darslari rejasini taxminiy rejasini keltiramiz:

Mashg`ulotning mavzusi.

Mashg`ulotning maqsadi.

O`qitish ishlari olib boriladigan ish joylari.

Traktor, agregat, asboblarni hamda zarur texnologik xujjatlar.

Kirish yo`l – yo`riqning mazmuni, o`tkazilish joyi va vaqti. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish tadbirlari.

O`quvchilarni ish joylari bo`yicha taqsimlash, o`quvchilarga beriladigan topshiriqlarni aniqlash, vaqt (bajarish vaqtini) ni belgilash. O`quvchilarning ish joylarini o`zgartirish jadvalini tuzish.

Joriy yo`l yo`riqning asosiy vaziyatlari va mashg`ulotning tarbiyaviy vazifalarini belgilash.

O`quvchilar bajargan ishlarni qabul qilish, tahlil etish va baholash vaqti.

Yakunlovchi yo`l – yo`riq.

Mashg`ulot rejalarini bajarilishi haqida baho. Ishlab chiqarish amaliyoti davridagi dars rejasini tuzishda usta o`quvchilarga yangi texnikani, ishlab chiqarish ilg`orlarining tajribasini o`rgatishga ularni mustaqil bajarishlariga alohida ehtibor beradi.

12.8. Yig`ma – mavzuviy rejalashtirishning mohiyati shundaki, unda ishlab chiqarish tahlimi dasturining har bir mavzusi bo`yicha o`quv jarayonidagi metodik va moddiy – texnikaviy tayyorgarlikni o`z ichiga oluvchi reja oldindan tuziladi.

Rejada o'quv materialini darslarga taqsimlash mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi, o'quv jarayonini moddiy – texnika jihatdan tahminlanishi nazarda tutiladi. Bu o'quv vaqtining yo'qotilishini kamaytirishga imkon beradi.

Leningrad shahar hunar maktabida qabul qilingan quyidagi yig'ma – mavzuviiy reja tuzilishidan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

O'rganish uchun ajratilgan mavzular nomi va soatlar miqdori.

Mavzuning o'quv maqsadi yahni o'quvchi mavzuni o'rganish vaqtida qanday bilim va ko'nikmalarni egallash kerak.

Mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqtni taqsimlash. Bu vaqt yo'l – yo'riq o'tkazish, mashqlar bajarish va ishlab chiqarish faoliyatiga sarflanadigan vaqtni hisobga olgan holda taqsimlanadi.

Mavzuchalar va ularni o'rganishga sarflanadigan vaqt (materialning mazmuni va hajmiga ko'ra).

Har bir darsning mavzulari.

Darsning o'quv maqsadi. O'rganiladigan ish usullari yoxud mazkur darsda takomillashtiriladigan yoki mustahkamlanadigan usul va malakalar.

Amaliy ishda mustahkamlanishi zarur bo'lgan maxsus fanlarning materiallari.

O'quvchilarning mustaqil ishlari va ular bajaradigan mashqlar.

O'quv ishlab chiqarish ishlari (ishlar ruyxati bo'yicha).

Moslamalar, jihozlar, agregatlar, asboblari, texnikalardan

zarur bo'lganlariga alohida ahamiyat berish zarur.

(Ishga) Mashqlarga qo'yiladigan o'quv – texnikaviy talablar (mashqlarni har bir elementini, texnikani sozligini tahminlashga qaratilgan aniq harakatlar darajasi va boshqalar).

Ilg'or ishlab chiqarish tajribasini o'rganish (yangi zamonaviy taraqqiylashgan texnika, KXMLar, asboblari, jihozlar bilan ishlash).

13. Texnikaviy hujjatlar va ko'rgazmaviylik vositalari (chizmalar, plakatlar ko'rsatmali texnologik xaritalar, ma'lumot beruvchi jadvallar).

14. Ustani mavzuni o'rganish uchun nazariy va amaliy jihatidan tayyorlanishi.

O`z – o`zini nazorat qilish usullarini tanlash (mavzuning har bir darsi uchun rejalashtiriladi). Topshiriqni bajarishda o`quvchilar yo`l qo`ygan tipik xatolar haqida so`zlab berish.

Xavfsizlik texnikasi talablari (sanab o`tiladi).

Uy vazifalari (texnologik xarita va chizmalarni tuzish, ishlab chiqarishga taalluqli masalalarni yechish, maxsus texnologiya kurslarning murakkab bilimlarini takrorlash, ishni bajarishda qo`llaniladigan asbob, jihozlarni bayon qilish.

O`quv adabiyotlari (darsliklar, metodik qo`llanmalar)

Yig`ma mavzuviy rejalashtirish ustaning navbatdagi darslarga tayyorgarlik ko`rishdagi ishini mahlum darajada yengillashtiradi. U metodik savollarga va o`tgan darslarning analiziga ko`proq ehtibor bera oladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. —T.: O'zbekiston, 1998.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori .-T.: Sharq, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi. - T.: Sharq, 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- -T.: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, Tom –3. -1996.
6. Karimov I.A. O'zbekiston buYuk kelajak sari. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1998.
7. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O'zbekiston, Tom –3. -1996.
8. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.-T.: O'zbekiston, T.1-1996.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, -2008. – 176 b.
10. Asqarova O'g'iloy. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. O'quv uslubiy qo'llanma. Namangan Davlat universiteti. –T.: Istiqlol. 2005.
11. Zuxra Ismailova. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. «Fan» nashriyoti.-T. 2001.

12. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'kituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Toshkent: Fan, 2004. -127 b.
13. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o'quv Yurtlari uchun darslik./ M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. "Iqtisod-moliya", 2007.-380 b.
14. Tolipov.O'.Q.Barakaev. M. SHaripov. SH.S. Kasbiy pedagogika. - T., 2001.
15. Xasanboev J, X.Turakulov, M.Xaydarov, O.Xasanboeva. Pedagogika fanidan izohli lug'at.-T.: «Fan va texnologiya», 2008 y. 480 b.
16. Xasanboev J.Y. va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-T., "Fan".2006.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.bilimdon.uz. -O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining veb sayti.
2. www.de.uz-Masofaviy ta'lim tizimiga bag'ishlangan veb sayt.
3. www.plekhanov.ru.-Plexanov nomidagi Rossiya iqtisod akademiyasining veb sayti.
4. www.tgeu.uz.-TDIU veb sayti.
5. www.tatu.ru.-TATU veb sayti.
6. www.pomorsu.ru.
7. www.MTU-NET.ru.
8. www.bankreferatov.ru.
9. www.mgopu.ru.
10. www.glef.org. Djordj Lukasning Ta'limning fondi.